

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O‘RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabr holatiga viloyat doimiy aholisining soni 4 123,6 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 83,0 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko‘paydi. Shundan, 2 344,0 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,8 %) va 1 779,6 ming kishi - qishloq joylarida (43,2 %) istiqomat qiladi.


Viloyat hududi va aholi zichligi (2024- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo‘yicha	15.01.1938	6,759	4 123,6	610,1
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1877- yil	0,108	326,9	3 022,4
Qo‘qon	X asr	0,064	312,9	4 863,2
Quvasoy	14.06.1954- yil	0,264	102,7	389,0
Marg‘ilon	X asr	0,052	256,9	4 938,5
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926- yil	0,631	231,9	367,6
Qo‘shtepa	16.04.1952- yil	0,366	212,1	578,9
Bag‘dod	31.12.1964- yil	0,333	236,9	710,5
Buvayda	26.12.1973- yil	0,279	251,4	901,0
Beshariq	29.09.1926- yil	0,774	245,9	317,8
Quva	10.02.1939- yil	0,438	279,4	637,7
Uchko‘prik	29.09.1926- yil	0,271	245,7	906,2
Rishton	09.01.1967- yil	0,307	220,0	715,9
So‘x	27.02.1990- yil	0,221	85,4	386,9
Toshloq	12.04.1973- yil	0,243	220,8	910,0
O‘zbekiston	17.04.1963- yil	0,674	239,3	355,1
Farg‘ona	22.02.1964- yil	0,594	224,8	378,4
Dang‘ara	07.12.1970- yil	0,427	180,1	422,1
Furqat	09.04.1992- yil	0,305	129,0	422,5
Yozyovon	27.12.1980- yil	0,407	121,5	298,5

Farg‘ona viloyatining ma’muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,759 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi zichligi

2024- yil 1-oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi



Farg‘ona viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha 610,1 kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,3 kishiga ortgan (2023- yil 1-oktabrda 1 kv.km.ga 597,8 kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichligining eng yuqori ko‘rsatkichi Marg‘ilon shahrida 4 938,5 kishi, Qo‘qon shahrida 4 863,2 kishi, Farg‘ona shahrida 3 022,4 kishi, Toshloq tumanida 910,0 kishi, Buvayda tumanida 901,0 kishi, Uchko‘prik tumanida 906,2 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Yozyovon tumani 298,5 kishi, Beshariq tumanida 317,8 kishi, O‘zbekiston tumanida 355,1 kishi, Oltiariq tumanida 367,6 kishi, Farg‘ona tumanida 378,4 kishini tashkil etgan.

Viloyat ma‘muriy hududiy bo‘linishiga ko‘ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 194 ta shahar tipidagi posyolkalar, 999 ta qishloq aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tashkil topib, ularda **4 123,6** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma‘muriy markazi Farg‘ona shahridir.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot

(2024- yilning 1- oktabr holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, % da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Farg'ona viloyati	4 123,6	2 344,0	1 779,6	102,1	56,8	43,2
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	326,9	326,9	0,0	102,1	100,0	0,0
Qo'qon	312,9	312,9	0,0	101,7	100,0	0,0
Quvasoy	102,7	57,7	45,0	102,0	56,2	43,8
Marg'ilon	256,9	256,9	0,0	102,8	100,0	0,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	231,9	173,8	58,1	102,1	74,9	25,1
Qo'shtepa	212,1	81,6	130,5	102,1	38,4	61,6
Bag'dod	236,9	120,9	116,0	102,2	51,0	49,0
Buvayda	251,4	113,9	137,5	102,2	45,3	54,7
Beshariq	245,9	86,0	159,9	101,8	35,0	65,0
Quva	279,4	129,2	150,2	101,8	46,2	53,8
Uchko'prik	245,7	47,2	198,5	102,2	19,2	80,8
Rishton	220,0	140,1	79,9	102,0	63,7	36,3
So'x	85,4	53,7	31,7	102,6	62,9	37,1
Toshloq	220,8	52,2	168,6	101,3	23,6	76,4
O'zbekiston	239,3	108,9	130,4	102,3	45,5	54,5
Farg'ona	224,8	139,0	85,8	102,0	61,9	38,1
Dang'ara	180,1	39,8	140,3	102,3	22,1	77,9
Furqat	129,0	30,9	98,1	102,0	23,9	76,1
Yozyovon	121,5	72,4	49,1	101,9	59,6	40,4

Shaharlar ichida eng ko'p aholi Farg'ona shahrida 326,9 ming kishi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 %ga o'sgan) va tumanlarda eng ko'p aholi Quva tumanida bo'lib 279,4 ming kishini tashkil qiladi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o'sgan).

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar

Qishloq




56,8%

43,2%

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1-oktabr holatiga



2 081,2 ming kishi

2 042,4 ming kishi


Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo‘yicha

aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>
Tug‘ilganlar	79,8	77,5	26,6	25,3
O‘lganlar	13,7	13,7	4,6	4,5
Nikohlar, <i>mingta</i>	20,3	19,3	6,8	6,3
Ajralishlar, <i>mingta</i>	4,4	3,6	1,5	1,2

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2024- yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



Tug'ilish darajasi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylari tug'ilganlar soni 77,5 ming kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (79,8 ming kishi) nisbatan 2,3 ming kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 25,3 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Uchko'prik tumanida 5,4 dan 29,7 promille, kamayishi esa Qo'shtepa tumanida 4,5 dan 28,7 promillega, Dang'ara tumanida 3,7 dan 27,9 promillega kuzatildi.

O'lim darajasi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni **13 665** kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (**13 706** kishi) nisbatan **41** kishiga kamaygan. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil qildi (2023- yil yanvar-sentabr oylarida **4,6** promille).

O'lganlar sonining ko'payishi viloyatimizning ba'zi shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p o'lim Farg'ona shaharda 1 373 kishidan 5,7 promille, Qo'qon shaharda 1 150 kishidan 4,9 promillega kuzatildi, Quva tumanida 875 kishidan 4,2 promille, Marg'ilon shaharda 854 kishidan 4,5 promille, Beshariq tumanida 806 kishidan 4,4 promille.

O'lganlar umumiy sonining **60,6** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,6** %i o'sma kasalliklaridan, **4,2** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **6,6** %i baxtsiz hodisadan, **5,4** %i nafas olish organlari kasalliklaridan, 0,9 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan va **12,7** %i boshqa sabablarga ko'ra vafot etgan.

Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-sentabr oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **19 302** ta nikohlar va **3 598** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 6,3 ta nikoh (2023- yilning tegishli davrida 6,8 ta) va 1,2 ta ajralishlar (2023- yilning tegishli davrida -1,5) to‘g‘ri keladi.

Yanvar-sentabr oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
Viloyat	20 279	19 302	4 410	3 598
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1 545	1 479	592	422
Qo‘qon	1 448	1 412	453	415
Quvasoy	455	463	145	106
Marg‘ilon	1 366	1 191	270	216
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	1 186	1 146	228	192
Qo‘shtepa	1 095	1 038	184	123
Bag‘dod	1 240	1 238	253	198
Buvayda	1 282	1 312	223	153
Beshariq	1 019	908	198	188
Quva	1 282	1 268	255	187
Uchko‘prik	1 288	1 199	223	189
Rishton	1 246	1 066	257	172
So‘x	396	398	84	71
Toshloq	1 062	990	157	160
O‘zbekiston	1 098	1 081	222	225
Farg‘ona	1 243	1 091	252	214
Dang‘ara	921	881	172	169
Furqat	548	631	120	123
Yozyovon	559	510	122	75

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatga ko'chib kelganlar soni **9 888** kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **11 568** kishini tashkil qildi. Migratsiya saldosini minus **1 680** kishiga (2023-yilning shu davrida minus **2 017** kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg'ilon shahri (minus **732**) va O'zbekiston tumani (minus **514**) kuzatildi.

Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosini	
	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil	2023-yil	2024-yil
Viloyat	6 919	9 888	8 936	11 568	-2 017	-1 680
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	3 316	3 289	1 939	2 089	1 377	1 200
Qo'qon	190	1 375	958	1 267	-768	108
Quvasoy	383	373	235	316	148	57
Marg'ilon	14	540	834	1 272	-820	-732
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	121	178	322	372	-201	-194
Qo'shtepa	357	642	255	490	102	152
Bag'dod	14	78	261	325	-247	-247
Buvayda	120	201	312	332	-192	-131
Beshariq	194	124	505	534	-311	-410
Quva	153	302	501	566	-348	-264
Uchko'prik	119	137	257	447	-138	-310
Rishton	159	174	344	454	-185	-280
So'x	101	491	45	129	56	362
Toshloq	279	384	282	540	-3	-156
O'zbekiston	245	203	421	717	-176	-514
Farg'ona	411	668	846	756	-435	-88
Dang'ara	336	337	215	469	121	-132
Furqat	291	262	237	298	54	-36
Yozyovon	116	130	167	195	-51	-65

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 821,5 ming so'mni tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga


nisbatan 14,2 %ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shahrida 5 200,3 ming so'mni, Qo'qon shahrida 4 390,6 ming so'mga to'g'ri keldi.

Yanvar-sentabr oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib 9 692,8 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda 3 627,9 ming so‘m, sanoatda 4 431,2 ming so‘m va ta‘lim sohasida 3 105,9 ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-sentabr oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati %
Viloyat	3 347,1	3 821,5	114,2
<i>shaharlar:</i>			
Farg‘ona	4 698,2	5 200,3	110,7
Qo‘qon	3 845,3	4 390,6	114,2
Quvasoy	3 303,7	3 972,0	120,2
Marg‘ilon	2 760,5	3 163,3	114,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	2 263,8	2 808,9	124,1
Qo‘shtepa	2 792,9	3 290,2	117,8
Bag‘dod	2 769,5	3 024,2	109,2
Buvayda	2 699,1	3 186,7	118,1
Beshariq	2 502,2	2 814,1	112,5
Quva	2 541,7	2 765,4	108,8
Uchko‘prik	2 589,6	3 527,7	136,2
Rishton	2 486,9	2 887,5	116,1
So‘x	2 742,2	3 125,7	114,0
Toshloq	3 563,1	4 118,7	115,6
O‘zbekiston	2 666,2	3 122,7	117,1
Farg‘ona	2 591,8	2 793,2	107,8
Dang‘ara	2 692,8	3 055,7	113,5
Furqat	2 822,4	3 017,6	106,9
Yozyovon	2 803,7	3 107,1	110,8

***(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*